UDK: 63.631

TAJRIBA DALASI TUPROG‘INING CHEKLANGAN DALA NAM SIG‘IMI

H.To‘ramurodov
Toshkent davlat agrar universiteti, mustaqil izlanuvchi
https://orcid.org/0009-0008-4269-1029
S.Tashimov
Toshkent davlat agrar universiteti tadqiqotchisi
J.Zarifbayev
Toshkent davlat agrar universiteti tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0002-4097-4996
D.Rahmonova
Toshkent davlat agrar universiteti tadqiqotchisi

Yeryong‘oq urug‘ining mag‘zidan holva, konfet, tort va boshqa qandolatlar tayyorlanadi, bundan tashqari qovurib iste’mol qilinadi. Mevasi dukkak, dukkaklari 1-2 urug‘li, 2-3 urug‘li va 4-7 urug‘li bo‘ladi. 1000 dona dukkagining og‘irligi 500 g dan 1900 g gacha. 1000 dona urug‘ining massasi 200 g dan 1200 g gacha bo‘ladi. Yeryong‘oq o‘stirilgan yerda uningildizidagi tugunak bakteriyalari yordamida 1 mavsumda 50 kg sof azot to‘planadi. [2.5-7;]. M.E. Amanova, A. Rustamov va T. Duysenovlarning [3; 24-b.] olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, yeryong‘oq urug‘ini yetishtirishda 1 – sinf urug‘laridan foydalanib, “Salomat” navi urug‘chiligi uchun maqbul ekish sxemasi 70x15 sm (95–100 ming ko‘chat), “Qibray-4” va “Mumtoz” navlari urug‘lari katta bo‘lganligi sababli maqbul ekish sxemasi 70 x 20-1, ya’ni har gektar maydonda o‘rtacha 75–80 ming tagacha ko‘chat qoldirilganda yaxshi natijalarga erishganliklarini ta’kidlashgan. “Salomat” navi (1000 dona urug‘ining vazni o‘rtacha 500–600 g bo‘lganligi) uchun 50–55 kg/ga, “Qibray – 4” va “Mumtoz” navlari (1000 dona urug‘ining vazni o‘rtacha 750–800 g bo‘lganligi) uchun 60 – 65 kg/ga ekishni tavsiya etilgan.

Tajriba natijalari. Tajribada olingan tahlil natijalar shuni ko‘rsatdiki cheklangan dala nam sig‘imiga foiz hisobida, quruq tuproq massasiga nisbatan hisobiy qatlam 0-10 sm birinchi takrorlashda 22,2 % ikkinchi takrorlashda 21,7 % va uchinchi takrorlashda 22,2 % hamda o‘rtachasi 22,0 % bo‘lgnani aniqlandi. Keyingi qatlamda 10-20 sm qatlamda birinchi va ikkinchi takrorlashda 22,1 % va 21,2 % uchinchi takrorlashda 21,6 % o‘rtachasi 21,6 % bo‘lganligi aniqlangan. 20-30 sm hisbobiy qatlamda birinchi takrorlashda 21,4 ikkinchi va uchinchi takrorlashda 20,8 va 21,3 hamda o‘rtachasi 21,2 bo‘lganligi qayt etilgan. 30-40 sm qatlam bo‘yicha birinchi takrorlashda 21,5 % ikkinchi takrorlashda 21,6 % uchinchi takrorlashda 22,3 % va o‘rtacha 21,8 % bo‘lganligi kuzatilgan. Hisobiy 40-50 sm qatlamda birinchi takrorlashda 21,1 % ikkinchi va uchinchi takrorlashda 22,7 va 22,5 % va o‘rtachasi 22,1 % bo‘lganligi qayd etilgan. 50-60 sm hisobiy qatlam bo‘yicha olingan natijalar birinchi takrorlashda 21,9 % ikkinchi takrorlashda 22,4 % uchinchi takrorlashda 22,8 % hamda o‘rtachasi 22,4 % bo‘lganligi aniqlangan. 60-70 sm hisobiy qatlamda birinchi va ikkinchi takrorlashda 23,1 va 22,6 % uchinchi takrorlashda 21,8 % o‘rtachasi esa 22,5 % bo‘lganligi qayd etilgan. 70-80 sm hisobiy qatlam bo‘yicha birinchi takrorlashda 22,8 % ikkinchi takrorlashda 21,3 % uchinchi takrorlashda 22,1 va o‘rtachasi ham 22,1 % bo‘lganligi aniqlangan.

1- jadval

Cheklangan dala nam sig‘imi, % hisobida, quruq tuproq massasiga nisbatan (2024-yil)

Turoq qatlamlar	I	II	III	O‘rtacha
0-10	22,2	21,7	22,2	22,0
10-20	22,1	21,2	21,6	21,6
20-30	21,4	20,8	21,3	21,2
30-40	21,5	21,6	22,3	21,8
40-50	21,1	22,7	22,5	22,1
50-60	21,9	22,4	22,8	22,4
60-70	23,1	22,6	21,8	22,5

70-80	22,8	21,3	22,1	22,1
80-90	21,7	23,5	22,5	22,6
90-100	23,2	22,4	21,8	22,5
0-30	**21,9**	**21,2**	**21,7**	**21,6**
0-50	**21,7**	**21,6**	**22,0**	**21,7**
0-70	**21,9**	**21,9**	**22,1**	**21,9**

Tuproqning 80-90 sm hisobiy qatlam bo‘yicha birinchi takrorlashda 21,7 % ikkinchi takrorlashda 23,5 % uchinchi takrorlashda 22,5 % hamda o‘rtachasi 22,6 % bo‘lganligi kuzatilgan. 90-100 sm hisobiy qatlam bo‘yicha birinchi takrorlashda 23,2 % ikkinchi takrorlashda 22,4 % uchinchi takrorlashda 21,8 % va o‘rtachasi 22,5 % bo‘lganligi aniqlangan. Tajriba olingan tahlillarni qatlamlar bo‘yicha o‘rtachasi ham hisoblangan 0-30 sm hisobiy qatlamda birinchi takrorlashda 21,9 % ikkinchi takrorlashda esa 21,2 % va uchinchi takrorlashda 21,7 % bo‘lganda o‘rtachasi 21,6 % bo‘lganligi aniqlandi. 0-50 sm hisobiy qatlamda birinchi va ikkinchi takrorlashlarda 21,7 va 21,6 % bo‘lganda o‘rtachasi 21,7 % bo‘lganligi qayt etildi. 0-70 sm hisobiy qatlam bo‘yicha birinchi takrorlashda 21,9 % bo‘lganda ikkinchi va uchinchi takrorlashlarda 21,9 % va 22,1 % bo‘lib o‘rtachasi 21,9 % bo‘lganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.Xudayberdiyev., Sh.G‘offorova //Yeryong‘oqni yetishtirish texnologiyasi- Academic Research in educational scinces ISSN:2181-1385 Volume5 Issue-9–2024 B.58-63

2. J.B.Xudayqulov., M.E.Amanova //Yeryong‘oq yetishtirish- Agrobank 100 ta Kitob to‘plami B.5-7

3. Amanova M., X.Bo‘riyev, A.Rustamov. “Yeryong‘oq ekinining urug‘chiligi bo‘yicha tavsiyanoma”. Toshkent-2010. 16. b.